

O'ZBEK TILI TIBBIY TERMINLARINING GENETIK XUSUSIYATLARI

Buronova Xolida Toshtemirovna,
O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali o'qituvchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.009>

Annotatsiya: Dunyoda mavjud barcha tillarning rivojlanish qonuniyatlaridan biri uning boshqa tillar bilan aloqasidir. Bu esa tillarning leksikasida o'z aksini topadi. Tillarning dunyoda borligi talablaridan biri ham so'zlarning o'zlashishidir. Ushbu o'zlashgan so'zlarning etimologiyasini o'rganish tilning diaxron va sinxron holati haqida, qaysi davrda qaysi tillar bilan o'zaro va faol aloqada bo'lganligi to'g'risida ma'lumot bera oladi. Mazkur maqolada o'zbek tiliga o'zlashgan terminlarning genetik kelib chiqish asosi "O'zbek tilining izohli lug'ati" asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: lug'at, lug'atshunoslik, termin, tibbiyot, genetik, o'z qatlam, o'zlashma qatlam, olinma so'zlar, etimologiya.

GENETIC CHARACTERISTICS OF UZBEKI MEDICAL TERMS

Buronova Holida,
teacher of the Jizzakh branch of Uzbekistan National University

Annotation: one of the laws of development of all languages that exist in the world is its relationship with other languages. This is reflected in the lexicon of languages. One of the requirements for the presence of languages in the world is also the appropriation of words. The study of the etymology of these acquired words can provide information about the diachronic and synchronous state of the language, about which languages it interacted with and actively during which period. In this article, the basis of the genetic origin of the terms adopted into the Uzbek language was analyzed on the basis of the "Explanatory Dictionary of the Uzbek language".

Keywords: dictionary, lexicology, terminology, medicine, genetics, own layer, absorption layer, derivations, etymology.

ГЕНЕТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА УЗБЕКСКИХ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ

Бурунова Холита Тоштемировна,
преподаватель Джиззакского филиала Национального университета

Аннотация: одним из законов развития всех языков, существующих в мире, является его связь с другими языками. И это отражается в лексике языков. Одним из требований существования языков в мире является усвоение слов. Изучение этимологии этих заимствованных слов может дать информацию о диахронном и синхронном состоянии языка, о том, с какими языками он взаимодействовал и активно взаимодействовал в какой период. В данной статье анализируется генетическое происхождение терминов, заимствованных из узбекского языка, на основе "толкового словаря узбекского языка".

Ключевые слова: словарь, лексика, термин, медицина, генетика, собственный слой, слой ассимиляции, производные слова, этимология.

Inson hayotiga doir xalqaro standartlarga ega sohalardan biri bo'lgan tibbiyot mamlakatimizda taraqqiy topishi nuqtayi nazaridan ko'pyillik tarixga ega ekanligini ko'plab dalillar yordamida isbot qilish mumkin. Birgina "meditsina" so'zining vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino nomidan olinganligining o'zi ham fikrimizning yorqin ifodasi bo'la oladi. Ammo xalqaro miqyosda ushbu sohaning fan sifatida taraqqiy topishi, yoyilishi g'arb mamlakatlariga borib taqalishi ushbu soha terminologiyasining etimologiyasi ko'plab g'arb tillari bilan bog'liqligi ayni haqiqat ekanini inkor etmaydi. Aynan inson hayoti qadrlanishini nazarda tutuvchi xalqaro sa'y-harakatlarning amalga oshishi, xalqaro tashkilotlar faoliyatining yo'lga qo'yilishi mana shu jarayonlar bilan aloqador sohalarning tilida baynalmilallik xususiyati ustun bo'lishini taqazo qiladi. Ya'ni inson huquqi himoya qilinishi deyarli butun dunyo bo'ylab huquqqa oid tushunchalarni bir xil nomlashni taqazo qilgani kabi, uning hayotini asrash, salomatligini tiklashga oid tushunchalarning ham dunyoning har burchagida aynan bir xil bo'lishi zaruratini yuzaga chiqaradi. Qolaversa, shiddatli globallashuv jarayonida ushbu soha vakillarning o'zaro aloqasi va tajriba

almashinuvi ehtiyoj sanalganligi uchun ham ularning kasbiy muloqot tilida sohaga oid tushunchalarning bir xil bo'lishini davr talabi deyish mumkin.

Ammo shunga qaramay aytish mumkinki, inson salomatligi bilan bog'liq xalqning boy tajribasi, olamni metaforik anglashning har bir tilda o'ziga xos tarzda aks etishi, xalqona tabobatning amalda qo'llanishi kabi omillar tibbiyot sohasi terminologik leksikasida o'z qatlam so'zlarining mavjudligini, bu birliklarning soha termini sifatida shakllanib, iste'molda qo'llanishini inkor etib bo'lmaydi. Ammo aynan shu holat soha birliklari ichida leksik dubletlar, sinonimlar, polisemantik birliklarning ko'payishiga, natijada terminologik tizim uchun salbiy sanalgan holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, mustaqillik yillarida terminologik tizimlarni milliyashtirish harakatlari kuchayishi ushbu tizimning tilshunoslar nazoratidan chetga chiqishiga ham sabab bo'lib, ana shuning oqibatida ko'plab terminologik tizimlar fan-texnikaga doir tushunchani nomlovchi so'zlarning zo'rma-zo'raki, havaskorona o'zbekchalashish holatlariga uchradi. Milliy tilning terminologik tizimni shakllantirish imkoniyatini yetarli darajada baholay olmaslik emas, balki terminologiyada tushunchaga nom berishning aniq mezonlari ishlab chiqilmaganligi ham ko'plab salbiy holatlarni keltirib chiqarishi tabiiy edi. Xususan, obyektimiz tibbiyot terminologiyasining mustaqillikning dastlabki yillaridagi holati bo'yicha ham xuddi shunday fikr yuritish mumkin.

O'zbek tilining terminologik tizimlari orasida eng salmoqlilaridan bo'lgan tibbiyot terminologiyasi birliklari ichidan o'zbek tilining izohli lug'ati uchun tanlab olingan tib. va med. pometali terminlarning genetik jihatdan tahlili quyidagicha tasnif asosida taqdim etiladi:

o'z qatlam tibbiy terminlari (o'zbekcha so'zlarning termin sifatida qo'llanishi);

-o'zlashgan qatlam tibbiy terminlari: arab tili; fors tili; lotin tili; yunon tili; ingliz tili; fransuz tili; (zond, izolyatsiya, pipetka, tik, trepanziya); italyan tili; (pellagra); nemis tili; (shpatel, lanset, rentgen); rus va qadimgi rus tili; (rak, singa).

Quyida 5 jildli O'TILda mavjud tibbiy terminlarning yuqoridagi tasnif bo'yicha tahlilini ko'rib o'tamiz:

O'z qatlam tibbiy terminlari (o'zbekcha so'zlarning termin sifatida qo'llanishi)

Sof o'zbekcha terminlar: xirillash, qusish, qaltirama, o'sma, o'zgaruvchanlik, qonsizlik, liqildoq, manqalanish, manqalik, igna, irish, kuyish, ko'kyo'tal, ko'rish, ko'richak, karash, murtak, soqovlik, suvchechak, tang'ish, terlama, terlash, titrash, tutqanoq, tepki, yara, oraliq, oqma, bog'lov, bosqich, bichilish, buyurmoq, gul, yelikish, yorg'oq, jonsizlantirmoq, issiqlik, shilpiq, xantalli, aksirish.

O'zlashgan qatlam tibbiy terminlari:

Arab tilidan olingan so'zlarning termin sifatida berilishi: avrat, asorat, bavoisir, istisqo, savdo, saraton, tashxis, falaj, xafaqon, xilt, huqna (hushsizlik)

Fors tilidan olingan so'zlarning termin sifatida berilishi: shirincha, zardob, zaxm, pes, pilla, rishta, suzak, saramas, tuxmak, xol, chakmazak, chok, shirzada, paysa (taxtakach, shirincha). Bu so'zlardan paysa birligi sof forscha emas, fors+hind shaklida etimologik belgi bilan berilgan.

Lotin tilidan olingan so'zlarning termin sifatida berilishi: gallutsinatsiya, gingivit, depressiya, detrit, dizenteriya, immobilizatsiya, immunitet, inkubatsiya, infarkt, infeksiya, kaverna, menstruatsiya, novokain, ordinatura, ostit, palpatsiya, perkussiya, provokatsiya, puls, punksiya, radikulit, reabilitatsiya, reaksiya, reanimatsiya, rezeksiya, respirator, retsept, retsidiv, sanatsiya, skolpel, tolerantlik, tonzillit, transplantatsiya, ekzema, eksgumatsiya, eroziya, exinakokk.

Nemis tili orqali lotin tilidan o'zlashgan birliklar. Nemischa<lotincha: lanset, shpatel, (shina, shinalash)

Lotin tili orqali yunon tilidan o'zlashgan birliklar. Lotin<yunon: laringit

Qismlaridan biri boshqa, ikkinchisi boshqa tilga oid birliklar:

yunon+lotin: osteomielit, parametrit, paraproktit, paratit, pielit, pielonefrit, plevrit, proktit, ensefalit, ensefalogramma.

lotin+yunon: fibroma, letargiya, peritonit.

Yunon tilidan olingan so'zlarning termin sifatida berilishi: avitaminozlar, agnoziya, akineziya, agoniya, apatiya, apopleksiya, aritmiya, arterioskleroz, blefarit, bronxografiya, gangrena, gematologiya, giperemiya, gipertermiya, gipertoniya, gipertrofiya, gipotermiya, gipotoniya, gipotrofiya, gips, glaukoma, dermatit, diabet, diatez, dispepsiya, displaziya, distrofiya, difteriya, doza, kaxeksiya, kolit, krizis, levomitsetin, leykemiya, leykopeniya, logopatiya, mastit, meningit, metastaz, meteorizm, nevrlogiya,

nevrasteniya, nevrologiya, neyrodermit, nekroz, nefrit, osteoma, osteomomalyatsiya, osteomielit, osteoxondroz, otofon, pandemiya, pankreatit, parametrit, paratif, parez, patogeneza, patologiya, patologik, piodermiya, pnevmokokklar, pnevmoniya, podagra, poliartrit, polidaktimiya, polinevrit, poliomiolit, polip, poliuriya, revmatizm, revmatologiya, rinologiya.

Ingliz tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi: blokada, boks, drenaj, ketgut.

Bundan tashqari inglizcha bitta soʻz – shok tibbiy termin sifatida fransuz tili orqali oʻzlashganligi lugʻatda belgilangan.

Fransuz tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi: zond, izolyatsiya, pipetka, tik, trepanziya, shok.

Italyan tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi: pellagra.

Nemis tili tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi: shpatel, lanset, rentgen.

Rus va qadimgi rus tilidan olingan soʻzlarning termin sifatida berilishi: rak, singa.

Statistik maʼlumotlarga koʻra XX asrning soʻnggi oʻn yilligida jahon miqyosida barcha mamlakatlarda turli tizimlarda yangi yoʻnalishlar va yangicha yondashuvlar paydo boʻlishi hisobiga koʻplab tizimlar va ularning terminologiyasi muhim oʻzgarishlarga uchragan. Terminlar etimologiyasiga oid koʻrsatkichlar tibbiyot tizimi bundan mustasno boʻlganini yoki soha terminlari tubdan oʻzgarmaganligini koʻrsatadi.

Shuni aytib oʻtish joizki, lotin, yunon, fransuz, nemis, italyan kabi tillardan olingan soʻzlarning oʻzbek tilida termin sifatida qoʻllanishi mazkur tillarning oʻzidan toʻgʻridan-toʻgʻri emas, balki rus tili orqali amalga oshgan. Bu terminlarning imlo va talaffuziga oid masala – qoidalar ham rus tili orqali oʻzlashtirilganligi fikrimizni dalillaydi.

Yuqoridagi umumiy koʻrsatkichlar foizlarda quyidagicha namoyon boʻladi:

5 jildli OʻTILda berilgan tibbiyotga oid birliklarning genetik tahlili:

oʻz qatlam terminlari – 14%; arab: 2%; fors: 1,4%; lotin: 13,2%; yunon: 37,6%; ingliz: 1,4%; fransuz: 1,8%; italyan: 0,4%; nemis: 1,07%; rus: 0,7%; qismlaridan biri boshqa, ikkinchisi boshqa tilga oid murakkab genetik xususiyatga ega birliklar: 4,7%.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, genetik maʼlumotlarning berilishi termin haqida toʻliqroq tasavvurga ega boʻlish va tushuncha hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiyotda terminlarga qoʻyiladigan talablardan biri uning etimologik maʼlumotiga ahamiyat berish hisoblanadi. Soʻz (lotin, yunon tillaridan olingan) tibbiy termin sifatida shakllantirish jarayonida uning tub etimologik maʼnosi oʻzgarmasligi lozimligi taʼkidlanadi. Tadqiqot obyektimiz – Izohli lugʻatlardagi tib. va med. pometali tibbiyotga oid etimologik maʼlumotlarga doir tahlillarimiz shuni koʻrsatadiki, OʻTILda tibbiyot tili hisoblanmish lotin va yunon tillariga oid birliklar berilishi yetakchilik qiladi. Shu bilan birga oʻz qatlam birliklarining termin sifatida berilishi ham pometali birliklarga nisbatan olganda salmoqli. Bu milliy tilning termin shakllantirish xususiyatini koʻrsatishda muhim koʻrsatkich sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Tahlillarimiz mobaynida biz tomonimizdan koʻrsatilgan holatlar keyingi nashrlarda inobatga olinishi lugʻatdan foydalanish samaradorligini oshirishga, qolaversa, lugʻat tarkibini tamollashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar roʻyxati

Даниленко В. П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М., 1977. С.17.

Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2017. – Б.129.

Gyls, Barbara A. Medical terminology simplified: a programmed learning approach by body system/ Barbara A. Gyls, Regina M. Masters. — Fifth edition. 2014

Rustamova S.Sh., Saydullayeva M.A., Abdullayeva R.M va boshqalar. Lotin tili va tibbiy terminologiya. TTA bakalavr 1-kurs talabari uchun darslik. Toshkent, 2017. 311 b.

Boliyev M.N. Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi: tibbiyot kollejlari uchun darslik. -qayta ishlangan va toʻldirilgan 8-nashr. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. – B.58.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.492.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.488.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.42.